DOI 10.5281/ZENODO.7975040

Djalilova Ma’mura Muzafarovna
Andijon viloyati Andijon tumani 1- son kasb-hunar maktabi
yoshlar bilan ishlash bo‘yicha direktor o‘rinbosari

XALQ OG‘ZAKI IJODI ORQALI O‘QUVCHILARDA VATANPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya: Ushbu maqolada kasb-hunar maktab o‘quvchilarida vatanparlik tuyg‘usini singdirishda xalq og‘zaki ijodi namunalarining o‘quvchi tarbiyasidagi ahamiyati ilmiy, nazariy va pedagogik jihatdan tahlil qilib berildi.
Kalit so‘zlar: Xalq og‘zaki ijodi, axloq, qadriyat, marosim, maqol, matal, ertak, afsona, latifa, topishmoq, doston.

Ma’lumki O‘rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan bo‘lgan o‘zbek san’ati va uning eng qadimgi turi hisoblangan xalq og‘zaki ijodi, ayniqsa, uning etnik janri bo‘lgan dostonlari g‘oyat faxrli o‘rin tutgan, mehnatkash xalqning g‘oyaviy, axloqiy-ma’rifiy, ma’naviy takomilida xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalari, ozod va farovon hayotga intilishlari, adolatsizlik va xaqsizlikka qarshi qarshi kurash o‘z ifodasini topgan.

Shu ma’noda asrlar davomida sayqal topib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan o‘zbek xalq dostonlari ijtimoiy taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lib, xalq hayotida turli davrlarda sodir bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy qadriyatlarni, marosim va urf-odatlarni o‘zida jamlagan boy va mukammal manbadir.

Binobarin, bu manbani har jihatdan o‘rganib, ulardan foydalanib, an’anaviy qadriyatlarni, muhim g‘oyalarni umumlashtirib va ular asosida yosh avlodni tarbiyalashda istiqlol mafkurasini yaratishga kirishilgan hozirgi davrda g‘oyatda muhimdir.

Xalqimiz bag‘ridan ajoyib iste’dod sohiblari yetishib chiqqan. Ularning orzu istaklari, ular yaratgan terma va dostonlarda ona allalari va o‘yinlarida o‘z ifodasini topgan.

Maqol va matallar, ertak va afsonalar, latifa va topishmoqlar hamda qahromonlik dostonlariga xalqning aql-zakovati, orzu havasi, ruhi va irodasi singdirilgan.

Dostonchiligimizning o‘ziga xosligidan biri jahon xalqlari madaniyatiga qo‘shgan katta hissa-undagi turkum dostonlarining yaratilishidir. Jumladan, o‘zbek folklorining “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Rustamxon” kabi turkum dostonlarga birikkan asarlarning har biri yuksak darajadaligi bilan ajralib turadi.

Atoqli shoir Hamid Olimjon “Alpomish” dostoniga yozgan “So‘z boshi o‘rnida” maqolasida dostondagi ijobiy qahromonlarda ifodalangan fazilatlar haqida shunday deydi: “Alpomish”dagi qahromonlik, mardlik tuyg‘usi, o‘z ishini, o‘z vatanini sevish hissi bilan, dushmanlarga g‘azab va nafrat

https://wordlyknowledge.uz

tushunchasi bilan to‘lgan. Shulardan kelib chiqqan holda dostonlar vositasida Vatan madhini, vatanparvarlikni katta yoshdagi bolalarga singdirishda olimlarimiz fikrlariga tayanamiz.

“Vatanni tan-joni, butun borlig‘i bilan sevish, vatan bilan Vatan farzandi bo‘lgani bilan cheksiz faxrlanish, Vatan uchun, xalqi uchun kerak bo‘lsa jonini fido qilishga shay turish-buyuk insoniy fazilatdir”.

Shuning uchun kasb-hunar maktablarida kasb-hunar o‘rgatish va ta’lim berish jarayonida quyidagilarga amal qilish lozim.

1. Doston, ertaklar tahlilida qadim turkiy xalqlarimizning vatanparvarlik, do‘stlik haqidagi qarashlarini yoritish;
2. Doston va ertaklardagi qahromonlar talqinida Vatanga muhabbat, do‘stlik fazilatlarining yoritilishiga alohida ahamiyat berish;

O‘quvchilarning yod olishlari uchun parchalar tavsiya qilish; yozma nutqni o‘stirish hamda dostonlarga, ulardagi sarkarda (qo‘mondon) obrazlarga munosabatni shakllantirishga e’tibor berish.

O‘quvchilarni vatanparvarlik, xalqiga muhabbat, olijanoblik, birodarlikni asrab-avaylash ruhida tarbiyalashda Abulqosim Firdavsiyning hayot yo‘li va yartilgan “Shohnoma” asaridagi ko‘plab ijobiy qahromonlar muhim ahamiyatga ega.

Ellikta padsholik davri tasvirlangan “Shohnoma” asari bolalarni botir vatanparvar, insonparvar, vafodor bo‘lishga da’vat etadi. Shu bilan birga mazkur asarda yovuzlik, makkorlik, xudbinlik, xasislik odamlarni nimalarga olib kelishi yorqin misollarda ko‘rsatiladi.

Tarixni haqqoniy anglash oson ish emas. Moziydan darak beradigan manbalarning qay biri sahih, qay biri yolg‘onligini ajratish ham quduq tubidan ignani topishdek gap. Shu bois ham tarixnavislar o‘z ko‘zi bilan ko‘rmagan voqealar tasviridan so‘ng “Bilim Allohga xosdir” deyishadi. Shunday bo‘lsa-da, tarix labirinti aro haqiqatni tanlay bilish zukko kitobxonning ixtiyorida qoladi.

Bugun yosh avlod uchun qahramonlik timsoli bo‘lgan jasoratli sarkardamiz Jaloliddin Manguberdi haqida ham turlicha qarashlar bor. Jaloliddin Manguberdi garchi jangda mag‘lub bo‘lgan bo‘lsada, ma’nan g‘olib bo‘lganini hatto Chingizxon ham tan olgani esa tarixiy haqiqatdir. Bu haqda Mirzo Ulug‘bek shunday yozadi: “Sultonning barcha fe’lu harakati Chingizxonga manzur bo‘lib, tahsin og‘zini ochib, o‘g‘illariga yuzlandi va dedi:— Otaga shunday o‘g‘il zarurki, u ikki girdob — olov va suv girdobidan ozodlik maydoniga chiqa oldi! Bu sultondan ko‘p ishlar va hisobsiz qissalar vujudga keldi va uning ishlaridan har qanday oqil o‘g‘il g‘ofil qolmasligi kerak!”

Garchi buyuk sakarda Jaloliddin Manguberdi Chingizxonga o‘z ona yurtining bir qarich yerini ham ravo ko‘rmagan. Shu sababdan mo‘g‘ul bosqinchilariga 10 yillar davomida hadsiz va hisobsiz jangu jadallar olib bordi.

Bugungi yosh avlod bundan to‘g‘ri va xolis baho chiqarishi lozim. O‘quvchilarga buyuk sarkarda haqida turli rivoyatlar, tarixiy hikoyalar aytib

https://wordlyknowledge.uz

berish lozim. Qolaversa kasb-hunar maktablarida bugungi kunda tarixiy shaxslar haqida ma'lumot berishda didaktik tarqatma materiallar, har xil jihozlar yetarli emas. Lekin shunga qaramasdan kasb-hunar maktab o'qituvchilari Jaloliddin Manguberdining qahramonlik timsolini o'quvchilarga sahnalashtirilgan tomosholar, teatrlar va adiblarimizning yozgan asrlaridagi obrazlar orqali Vatanparvarlik tuyg'ulariga bog'lab tushintirishga harakat qilmoqdalar.

Zero, Jaloliddinning o'zi shunday degan (M.Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasidagi bobomiz obrazining so'zlari):

Mangulikdan joy olgan — yashar abadiy,
Men-ku, Manguberdiman, olam biladi.
Ko'klardanmi, suvdanmi, yo yer tagidan,
Balki sahro bag'ridan, tog' etagidan,
Bir kun paydo bo'laman shu yurt, shu yerda,
Yurt shaydosi ko'milmas g'urbatda – go'rda.
Ulug'vor niyatlarga kor qilmas ajal,
Kim yurtdan yov quvsa –mendurman o'shal… O'zbekiston xalq artisti Ozodbek Nazarbekov ushbu sher'ni maromiga yetkazib ba'diy talqinlar va tarixiy sahnalashtirilgan kliplarda ta'sirchan qilib ijro etgan. Albatta kasb-hunar maktab o'quvchilari uchun mana shunday his-tuyg'ularini junbushga keltiradigan Vatanparvar mard o'g'lonlar va qizlar bo'lib kamolga yetishida muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Qolaversa kasb-hunar maktab o'quvchilarida Vatanni sevish hissini shakllantiradigan kinofilmlar va tarixiy seriallar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlari ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi.

Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim ayladim – xatolig' bo'ddi,
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi bu yerda shoh Boburning ushbu misralarini kasb-hunar maktab o'quvchilariga ta'sirli ohangda aytib berish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki Bobur Mirzo ushbu she'r orqali Vatan sog'inchi naqadar og'ir ekanligi, har qanday holatda vatanga qaytish o'tinchi uni tark etmaganligiga urg'i bergan. Bu bilan bugungi tarbiyalanuvchilarda Vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirish kerakligiga e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bo'lgan insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabbat va hijron azobi, ayrilig' alamlari va visol quvonchlari nihoyat go'zal va mohirona ifoda etilgan.

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lolarux, bu chehrai zardim.

https://wordlyknowledge.uz

Sen ey gul, qo‘ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog‘ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.

Bobur o‘z lirik she’rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, insonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg‘ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko‘rmag‘ay yomonlig‘ hargiz,
Har kimki yamon bo‘lsa, jazo topqusidur.

Xulosa qilib aytganada, buyuk ajdodlarimizning boy merosini, ularning qahramonligini aks ettiruvchi asarlar, o‘zbek xalq og‘zaki doston, ertaklarni o‘rganish, kasb-hunar maktabi o‘quvchilarining vatanparvarlik fazilatlarini shakllantirishda, bolalarda Vatanga muhabbat, faxrlanish, g‘ururlanish, mardlik tarbiyasini berish doimiy jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin., 2-jild. -T.: «O‘zbekiston», 1996.
2. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. 3-jild. -T.: «o‘zbekiston», 1996.
3. Avloniy A. Turkiy guliston yohud axloq. - T.: o‘qituvchi, 1992.

WORDLY
KNOWLEDGE

https://wordlyknowledge.uz